



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

- Barchamizga ma'lumki, avvallari diniy ekstremizm individual xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, globallashuv asriga kelib, u milliy xarakter kasb etmoqda.

- Ming afsuski, ayrim manfaatdor kuchlar tomonidan terror tushunchasini tinchlik va insonparvarlik dini bo'lgan islom bilan yonma-yon qo'yish, zo'ravonlikni faqat islomga bog'lash orqali 1,6 milliardlik dunyo musulmonlariga nisbatan salbiy kayfiyatni shakllantirish, islomofobiyaning keng yoyishga harakatlar kuzatilmoqda. Bu esa jahonning turli mintaqalarida etno-konfessional ziddiyatlar vujudga kelishi, yangidan-yangi nizo o'choqlari paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Terrorizmni nafaqat islom, balki xristianlik, yahudiylik kabi boshqa dinlar bilan bog'lash ham aslo mumkin emas. Binobarin, barcha ilohiy ta'limotlar asosida insonni ulug'lash, unga munosib izzat-hurmat ko'rsatish g'oyalari yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni

2. Ahmad ibn Hanbal, "Musnad"

Internet saytlari:

1. www.UzA.uz

2. www.ziyonet.uz

3. www.e-islam.kz

YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA)

Rana Shirzad

Magistrant Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/NVGQ3292

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar hayoti muammolari global tendensiyalar kontekstida tahlil qilinib, ularning O'zbekiston va Afg'oniston misolidagi o'ziga xos jihatlari qiyosiy asosda o'rganiladi. Tadqiqot doirasida yoshlar bandligi, ta'lim tizimi, NEET fenomeni hamda ijtimoiy integratsiya masalalari ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, har ikki mamlakatda yoshlar muammolarining namoyon bo'lish xususiyatlari institutsional rivojlanish darajasi bilan bog'liq holda baholangan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yoshlar muammolari transformatsion xarakterga ega bo'lib, asosan institutlarning samaradorligi va mehnat bozori bilan ta'lim tizimi o'rtasidagi nomuvofiqlik bilan izohlanadi. Afg'onistonda esa mazkur muammolar institutsional cheklanganlik va ijtimoiy xavflar bilan bog'liq tizimli xarakter kasb etadi.

Maqolada yoshlar muammolarini hal etishning xalqaro va milliy mexanizmlari tahlil qilinib, kompleks va integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyati asoslangan. Xususan, ta'lim, bandlik va ijtimoiy integratsiyani uyg'unlashtirgan holda yoshlar siyosatini shakllantirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *yoshlar siyosati, yoshlar muammolari, bandlik, NEET, ta'lim tizimi, institutsional rivojlanish, qiyosiy tahlil, ijtimoiy integratsiya, O'zbekiston, Afg'oniston*

YOUTH CHALLENGES IN CONTEMPORARY SOCIETY: GLOBAL TRENDS AND A COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEKISTAN AND AFGHANISTAN

Abstract. This article analyzes the challenges of youth life within the context of global trends and examines their specific features through a comparative analysis of Uzbekistan and Afghanistan. The study focuses on key issues such as youth employment, the education system, the NEET (Not in Employment, Education or Training) phenomenon, and social integration, all of which are explored using scientific and analytical approaches.

The findings indicate that youth-related challenges in Uzbekistan have a predominantly transformational character and are largely associated with institutional effectiveness and the mismatch between the education system and the labor market. In contrast, in Afghanistan, these challenges exhibit a systemic nature, being closely linked to institutional constraints and heightened social risks.

The article further analyzes both international and national mechanisms for addressing youth issues and substantiates the importance of a comprehensive and integrated approach. In particular, it emphasizes the necessity of developing youth policy through the alignment of education, employment, and social integration, providing a scientifically grounded framework for policy formulation.

Keywords: *youth policy, youth challenges, employment, NEET, education system, institutional development, comparative analysis, social integration, Uzbekistan, Afghanistan.*

XXI asrda yoshlar masalasi global ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kun tartibining markaziy elementlaridan biriga aylandi. Demografik jihatdan qaralganda, dunyo

aholisining salmoqli qismi yoshlardan iborat bo'lib, ularning jamiyat hayotidagi ishtiroki va ijtimoiy integratsiya darajasi barqaror rivojlanishning hal qiluvchi omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq, zamonaviy global jarayonlar - raqamlashuv, iqtisodiy transformatsiya, mehnat bozoridagi o'zgarishlar va ijtimoiy stratifikatsiyaning kuchayishi - yoshlar qatlami uchun yangi turdagi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 15-24 yosh toifasidagi yoshlar ishsizlik darajasi kattalarga nisbatan ancha yuqori bo'lib, o'rtacha 13 foizni tashkil etadi [International Labour Organization, 2024]. Shu bilan birga, global miqyosda 64 milliondan ortiq yoshlar ishsiz hisoblanadi. Ayniqsa, "NEET" (Not in Employment, Education or Training) - ya'ni ta'lim olmayotgan, ishlamaydigan va kasbiy tayyorgarlikdan o'tmayotgan yoshlar ulushi ayrim mamlakatlarda 20-30 foizdan oshmoqda [World Bank, 2023].

Mazkur holatni faqat iqtisodiy omillar bilan izohlash yetarli emas. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayonlar ko'pincha "yoshlar transformatsiya inqirozi" sifatida baholanadi, ya'ni ijtimoiy institutlar [Standing, 2011] (ta'lim, mehnat bozori, oila, davlat siyosati) va yoshlar ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik kuchayib bormoqda [Furlong, 2013; Beck, 1992; Standing, 2011]. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, muammo faqat resurslar yetishmasligida emas, balki ijtimoiy tizimlarning yangi sharoitlarga moslasha olmayotganida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, yoshlar muammolari universal xarakterga ega bo'lsa-da, ularning namoyon bo'lish shakllari har bir mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish darajasi va institutsional muhitga bog'liq holda farq qiladi. Masalan, rivojlanayotgan davlatlarda bu muammolar ko'proq bandlik va ta'lim tizimi bilan bog'liq bo'lsa, siyosiy beqarorlik hukm surayotgan hududlarda ular xavfsizlik, migratsiya va ijtimoiy izolyatsiya kabi omillar bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada yoshlar hayoti muammolari global tendensiyalar kontekstida tahlil qilinib, ularning O'zbekiston va Afg'oniston misolidagi qiyosiy xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - mazkur ikki

mamlakatda yoshlar muammolarining tabiati, ko'lam va namoyon bo'lish shakllarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularni hal etishdagi xalqaro va milliy mexanizmlarni ilmiy asosda baholash va umumlashtirilgan xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekistonda yoshlar hayoti muammolari: transformatsion jarayonlar va institutsional cheklovlar.

Demografik omil va yoshlar salmog'i.

O'zbekiston Respublikasi aholisi tarkibida yoshlar ulushi yuqori bo'lib, bu holat mamlakatni "yoshlar davlati" sifatida tavsiflash imkonini beradi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda 30 yoshgacha bo'lgan aholi soni 9 milliondan ortiqni tashkil etib, umumiy aholining qariyb chorak qismini tashkil qiladi [O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi, 2024].

Demografik jihatdan bunday ulkan yoshlar qatlami, bir tomondan, iqtisodiy o'sish va innovatsion rivojlanish uchun muhim resurs sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni samarali ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya qilish muammosini keskinlashtiradi. Ilmiy adabiyotlarda bu holat "demografik dividend" va "demografik bosim" o'rtasidagi muvozanat masalasi sifatida talqin qilinadi [Bloom et al., 2003].

Yoshlar bandligi va mehnat bozoridagi muammolar.

O'zbekistonda yoshlar bandligi masalasi eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilgan islohotlarga qaramasdan, yoshlar ishsizligi darajasi barqaror ravishda 10-11% atrofida saqlanib qolmoqda [World Bank, 2024].

Shu bilan birga, rasmiy statistikadan tashqari "yashirin ishsizlik" va norasmiy bandlik ko'lam ancha yuqori ekani qayd etiladi. Ayniqsa, qishloq hududlarida yoshlar ko'p hollarda norasmiy sektorda, kam daromadli va ijtimoiy himoyasiz mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqda [ILO, 2023].

Mazkur holat quyidagi tizimli omillar bilan bog'liq:

- ta'lim tizimi va mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi nomuvofiqlik;
- amaliy ko'nikmalar (soft va hard skills) yetishmasligi;
- hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi disproporsiyalar;
- yangi ish o'rinlarining yetarli darajada yaratilmayotgani.

Ilmiy nuqtai nazardan, bu jarayonni “skills mismatch” - ya'ni malakalar va bozor ehtiyojlari o'rtasidagi nomutanosiblik sifatida baholash mumkin [OECD, 2022; World Bank, 2019].

NEET fenomeni va ijtimoiy izolyatsiya xavfi.

O'zbekistonda yoshlar orasida NEET (Not in Employment, Education or Training) toifasiga kiruvchilar ulushi ham e'tiborga loyiq muammo hisoblanadi. Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, yoshlarning ayrim qismi ta'limdan va mehnat bozoridan chetda qolmoqda [UNICEF, 2023].

Bu holat quyidagi xavflarni keltirib chiqaradi:

- ijtimoiy passivlik va apatiya;
- iqtisodiy qaramlikning ortishi;
- marginallashuv va deviant xulq-atvor ehtimoli;
- migratsiyaga moyillikning kuchayishi [ILO, 2022; Eurofound, 2021].

Shu nuqtai nazardan, NEET fenomeni faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy barqarorlikka tahdid sifatida ham baholanishi lozim.

Ta'lim tizimi va uning transformatsiyasi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari sonining oshishi, xususiyl sektorning kirib kelishi va ta'lim qamrovining kengayishi ijobiy tendensiya sifatida baholanadi.

Biroq, quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

- ta'lim sifatining bir xil emasligi;
- amaliyl yo'nalishning yetarli emasligi;
- xalqaro standartlarga to'liq moslashmaganlik;
- bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuv darajasining pastligi.

Bu holat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda “sifat - emas, balki faqat miqdor o'sishi” ustuvor bo'lib qolayotganini ko'rsatadi.

Davlat yoshlar siyosati va uning samaradorligi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati institutsional jihatdan shakllangan. Jumladan: Yoshlar ishlari agentligi faoliyati; “Yoshlar daftari” tizimi; grantlar, subsidiyalar va startap dasturlari; kasb-hunar o'qitish markazlari va boshqalar. Bu

mexanizmlar yoshlarni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ularning samaradorligi quyidagi omillar bilan cheklanmoqda:

- dasturlarning fragmentar xarakterga ega ekani;
- monitoring va baholash mexanizmlarining zaifligi;
- mahalliy darajada amalga oshirish sifatining turlichaligi;
- byurokratik to'siqlar.

Shu nuqtai nazardan, davlat siyosati mavjud bo'lsa-da, uning natijaviyligi to'liq ta'minlanmagan. O'zbekistonda yoshlar muammolari klassik inqiroz emas, balki transformatsiya xarakteriga ega. Ya'ni mamlakatda institutsional baza mavjud, islohotlar amalga oshirilmoqda, biroq tizimning samaradorligi va moslashuvchanligi yetarli darajada emas. Shu bois yoshlar masalasi resurs yetishmasligi muammosi sifatida emas, balki institutlarning sifat jihatidan takomillashtirilishi masalasi sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Afg'onistonda yoshlar hayoti: institutsional cheklanishlar va ijtimoiy xavflar kontekstida.

Demografik omil va ijtimoiy muhitning o'ziga xosligi.

Afg'oniston aholisi tarkibida yoshlar ulushi juda yuqori bo'lib, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat aholisining taxminan 63 foizi 25 yoshdan kichikdir, 0-14 yosh toifasi esa qariyb 40-45 foizni tashkil etadi [UNFPA, 2024]. Bu holat mamlakatni demografik jihatdan "yosh jamiyat" sifatida tavsiflash imkonini beradi. Biroq, mazkur holat O'zbekistondan farqli ravishda iqtisodiy o'sish resursi sifatida emas, balki ijtimoiy bosim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Buning asosiy sababi - davlat institutlarining cheklanganligi, iqtisodiy infratuzilmaning zaifligi va uzoq yillik siyosiy beqarorlik ta'sirida ijtimoiy tizimlarning to'liq shakllanmaganidir [(World Bank, 2023)].

Ta'lim tizimi: imkoniyatlar va cheklovlar.

Afg'onistonda ta'lim tizimi so'nggi o'n yilliklarda turli bosqichlarda rivojlanish va regress jarayonlarini boshdan kechirdi. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda millionlab bolalar, ayniqsa qizlar, ta'limdan to'liq yoki qisman chetda qolmoqda [UNESCO, 2023].

Ta'lim sohasidagi asosiy muammolar:

- ta'lim muassasalari infratuzilmasining yetarli emasligi;
- malakali o'qituvchilar tanqisligi;
- gender tengsizlik;
- ta'lim jarayonining siyosiy va madaniy cheklovlar bilan bog'liqligi.

Bu holat yoshlar uchun ijtimoiy liftlar mexanizmlarini sezilarli darajada cheklab qo'ymoqda.

Yoshlar bandligi va iqtisodiy cheklovlar.

Afg'onistonda yoshlar bandligi masalasi yuqori darajada namoyon bo'ladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, yoshlar ishsizligi darajasi 15-17% atrofida baholanadi, biroq norasmiy sektorning ulushi yuqori bo'lgani sababli real ko'rsatkichlar ancha yuqori bo'lishi ehtimoldan xoli emas [ILO, 2023].

Yoshlar bandligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

- iqtisodiy faoliyatning cheklanganligi;
- investitsiya muhitining zaifligi;
- mehnat bozorining institutsionallashtirmaganligi;
- tashqi migratsiyaga yuqori moyillik.

Bu holat yoshlar uchun barqaror mehnat faoliyatini ta'minlash imkoniyatlarini keskin cheklab qo'yadi.

Ijtimoiy xavflar: marginallashtirish va radikalash ehtimoli.

Afg'oniston yoshlari hayotidagi eng jiddiy jihatlardan biri - ijtimoiy xavflar darajasining yuqoriligidir. Ta'lim va bandlik imkoniyatlarining cheklanganligi, ijtimoiy himoya mexanizmlarining zaifligi yoshlarning turli xavf guruhlariga tushib qolish ehtimolini oshiradi.

Ilmiy adabiyotlarda bunday holat quyidagi jarayonlar bilan bog'lanadi:

- marginallashtirish (ijtimoiy tizimdan chetlashish);
- noqonuniy iqtisodiy faoliyatga jalb etiluvchanlik;
- ekstremal g'oyalarga moyillik;
- majburiy yoki ixtiyoriy migratsiya [UNDP, 2022; World Bank, 2020].

Bu holatni ayblov emas, balki institutsional vakuum natijasi sifatida baholash muhim.

Xalqaro yordam va uning cheklangan samaradorligi.

Afg'onistonda yoshlar muammolarini hal etishda xalqaro tashkilotlar [UNICEF, UNDP, World Bank, ILO] tomonidan qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar ta'lim, kasb-hunar o'qitish va ijtimoiy himoyani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Biroq, ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ushbu mexanizmlarning samaradorligi quyidagi omillar bilan cheklanmoqda:

- siyosiy barqarorlikning yetarli emasligi;
- institutsional hamkorlik mexanizmlarining zaifligi;
- mahalliy darajada amalga oshirishdagi qiyinchiliklar;
- moliyaviy resurslardan samarali foydalanish muammolari.

Shu bois, Afg'onistonda yoshlar siyosati ko'proq tashqi qo'llab-quvvatlashga tayanadigan, ammo ichki institutsional baza yetarli darajada shakllanmagan tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda, yoshlar muammolari transformatsiya emas, balki institutsional cheklanganlik va ijtimoiy xavflar bilan bog'liq holda qolmoqda. Ta'lim, bandlik va ijtimoiy integratsiya mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmagani yoshlarning potensialini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston va Afg'oniston yoshlari hayotining qiyosiy tahlili: rivojlanish va cheklanish modellari.

Qiyosiy yondashuvning metodologik asoslari.

Yoshlar muammolarini qiyosiy tahlil qilishda davlatning institutsional rivojlanish darajasi, iqtisodiy tizimning barqarorligi va ijtimoiy infratuzilmaning holati asosiy mezonlar sifatida qabul qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda bunday yondashuv "developmental vs fragile states" (rivojlanayotgan va zaif davlatlar) modeli doirasida keng qo'llaniladi [OECD, 2022; World Bank, 2021].

Ushbu tadqiqot doirasida O'zbekiston va Afg'oniston misolida yoshlar muammolari ikki xil model sifatida ko'rib chiqiladi:

O'zbekiston - transformatsion rivojlanish modeli.

Afg'oniston - institutsional cheklanganlik modeli.

Jadval: Asosiy mezonlar bo'yicha qiyosiy tahlil

Mezon	O'zbekiston	Afg'oniston
Davlat institutlari	Barqaror va rivojlanayotgan	Cheklangan va zaif
Ta'lim tizimi	Kengaymoqda, modernizatsiya jarayonida	Cheklangan, qamrov va sifat muammosi
Yoshlar bandligi	O'rtacha, lekin nomuvofiqlik mavjud	Yuqori ishsizlik va norasmiy sektor
NEET darajasi	Muammo mavjud, lekin nazoratda	Yuqori xavfli darajada
Ijtimoiy xavflar	Nazorat qilinadi	Keskin va tizimli
Davlat yoshlar siyosati	Mavjud va institutsionallashgan	Cheklangan, asosan tashqi yordamga tayanadi

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, har ikki mamlakatda yoshlar muammolari mavjud bo'lsa-da, ularning tabiati va chuqurligi tubdan farq qiladi.

Konseptual farq: transformatsiya va inqiroz.

Qiyosiy tahlilning eng muhim natijasi - yoshlar muammolarining tabiatidagi konseptual farqdir.

O'zbekiston holatida institutlar mavjudligi, islohotlarning amalga oshirilayotgani, ammo muammo - samaradorlik va moslashuvda ekani namoyon bo'ladi va bu holatni "transformatsiya muammosi" deb ta'riflash mumkin.

Afg'oniston holatida esa, institutlar cheklangan, ijtimoiy mexanizmlar zaif hamda tashqi omillarga bog'liqlik yuqori darajada ekanini ta'kidlash joiz. Bu holat "institutsional cheklanganlik muammosi" sifatida namoyon bo'ladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda muammolar evolyutsion xarakterga ega, ya'ni islohotlar orqali bosqichma-bosqich hal etilishi mumkin.

Afg'onistonda esa muammolar strukturaviy va tizimli xarakterga ega, ya'ni kompleks va uzoq muddatli yechimlarni talab qiladi.

Ilmiy modellashtirish nuqtai nazaridan, yoshlar muammolarini quyidagi konseptual formula orqali ifodalash mumkin:

Yoshlar natijalari = institutsional salohiyat $\times$ iqtisodiy imkoniyatlar $\times$ ijtimoiy integratsiya (Youth outcomes = Institutional capacity $\times$ Economic opportunities $\times$ Social integration).

Ushbu formula yoshlar muammolarining ko'lami va chuqurligi faqat resurslar bilan emas, balki institutsional sifat va ijtimoiy muhit bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosaga kelish mumkin: Yoshlar muammolari universal xarakterga ega bo'lsa-da, ularning namoyon bo'lish shakli va chuqurligi davlatning institutsional rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq. Institutsional barqarorlik mavjud sharoitda muammolar transformatsiya ko'rinishida namoyon bo'lsa, institutsional cheklanganlik sharoitida ular tizimli ijtimoiy xavflarga aylanadi.

O'zbekiston va Afg'oniston misoli shuni yaqqol ko'rsatadiki, yoshlar masalasi faqat demografik yoki iqtisodiy emas, balki institutsional va siyosiy muhit bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, yoshlar siyosati universal modellar asosida emas, balki har bir mamlakatning institutsional holatidan kelib chiqqan holda shakllantirilishi lozim. Bu esa yoshlar muammolarini alohida sohaviy masala sifatida emas, balki institutsional tizim samaradorligining indikatori sifatida ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.

Yoshlar muammolarini hal etishning xalqaro va milliy mexanizmlari.

Xalqaro yondashuvlar: integratsiyalashgan modellar.

Zamonaviy xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, yoshlar muammolarini hal etish faqat bir sohaviy siyosat orqali emas, balki kompleks va integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Xususan, ILO, UNESCO va World Bank kabi tashkilotlar tomonidan quyidagi ustuvor yo'nalishlar ilgari surilmoqda:

- ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi;
- kasbiy tayyorgarlik va "lifelong learning" konsepsiyasi;

- yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash;
- ijtimoiy himoya mexanizmlarini kengaytirish.

Ayniqsa, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasida qo'llanilgan dual education (ikki tomonlama ta'lim modeli) yoshlarning mehnat bozoriga moslashuvini ta'minlashda yuqori samaradorlik ko'rsatgan [OECD, 2021; BIBB, 2020].

Shu bilan birga, xalqaro modellarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish har doim ham samarali natija bermasligini ta'kidlash joiz. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, institutsional muhit farqli bo'lgan sharoitda universal modellar ishlamaydi, madaniy va ijtimoiy omillar yetarli hisobga olinmaydi, mahalliy ehtiyojlar bilan muvofiqlashtirish yetarli darajada emas. Bu holat, ayniqsa, Afg'oniston kabi davlatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida yoshlar muammolarini hal etishda quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1) Ta'lim-mehnat bozori integratsiyasini kuchaytirish:

- oliy ta'limda amaliy komponentni oshirish;
- ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish;
- stajirovka va apprenticeship tizimini kengaytirish.

2) NEET toifasini qisqartirish:

- maqsadli dasturlar orqali "xavf guruhi" yoshlarni qamrab olish;
- mahalliy darajada individual yondashuvni kuchaytirish.

3) Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish:

- mikromoliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish;
- startup ekotizimni institutsional qo'llab-quvvatlash;
- biznes ko'nikmalarini rivojlantirish dasturlari.

4) Davlat dasturlarining samaradorligini oshirish:

- monitoring va baholash tizimini kuchaytirish;
- natijaga yo'naltirilgan (result-based) yondashuvni joriy etish;
- raqamli boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish.

Ilmiy nuqtai nazardan olib qaralganda, hozirda O'zbekiston uchun asosiy vazifa - mavjud institutlarning sifat jihatdan samaradorligini oshirish.

Afg'oniston sharoitida yoshlar muammolarini hal etish bosqichma-bosqich va ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilishi lozim. Bunda ustuvor yo'nalishlar sifatida - bazaviy ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish; kasb-hunar ta'limiga e'tiborni kuchaytirish; xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish; mahalliy jamoalar darajasida ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish kabilar alohida e'tibor talab etadi. Bu yerda asosiy masala - institutsional asoslarni shakllantirish.

Qiyosiy tahlil va xalqaro tajriba asosida yoshlar hayoti va undagi muammolar xususida, nazarimizda, quyidagi umumiy modelni taklif qilish mumkin:

“Yoshlar siyosati = ta'lim + bandlik + ijtimoiy integratsiya + institutsional sifat”.

Bu formula yoshlar muammolarini kompleks tarzda hal etishning universal modeli sifatida qaralishi mumkin.

Yoshlar muammolarini hal etishda universal retsept mavjud emas. Samarali siyosat har bir mamlakatning institutsional holati, iqtisodiy imkoniyatlari va ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilishi lozim. Shu bilan birga, ta'lim, bandlik va ijtimoiy integratsiyani bir-biridan ajratmagan holda kompleks yondashuv asosiy shart hisoblanadi. Yoshlarga sarmoya - bu ijtimoiy xarajat emas, balki strategik investitsiyadir.

Yoshlar hayoti muammolariga oid global tendensiyalar va ikki turli institutsional muhit - O'zbekiston va Afg'oniston misolida qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar muammolari o'z tabiatiga ko'ra universal xarakterga ega bo'lsa-da, ularning namoyon bo'lish shakli va chuqurligi har bir jamiyatning institutsional rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston sharoitida yoshlar muammolari asosan transformatsion xususiyatga ega bo'lib, ular ta'lim tizimi, mehnat bozori va davlat siyosati o'rtasidagi nomuvofiqlik bilan izohlanadi. Bu yerda muammo resurs yetishmasligida emas, balki mavjud institutlarning samaradorligi va ularning zamonaviy talablarga moslashuv darajasida namoyon bo'ladi. Shu bois, O'zbekiston uchun asosiy vazifa - institutsional tizimlarni chuqur modernizatsiya qilish va ularning natijaviyligini oshirishdan iborat.

Afg'oniston misoli esa yoshlar muammolarining boshqacha - institutsional cheklanganlik va ijtimoiy xavflar bilan bog'liq shaklini namoyon etadi. Bu yerda ta'lim,

bandlik va ijtimoiy integratsiya mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmagani yoshlarning potensialini ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini keskin cheklab qo'yadi. Shu sababli mazkur holatni alohida ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida emas, balki kengroq institutsional muhit bilan bog'liq tizimli muammo sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Yana bir jihat ma'lum bo'ladiki, yoshlar siyosati samaradorligi uning qamrovi yoki moliyaviy hajmi bilan emas, balki institutsional sifat, boshqaruv samaradorligi va ijtimoiy integratsiya darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar muammolarini hal etishda faqat iqtisodiy chora-tadbirlar yetarli emas, bu jarayon ta'lim, mehnat bozori va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlashni talab qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari xalqaro tajribani ko'r-ko'rona joriy etish samara bermasligini, har bir mamlakat o'zining institutsional va madaniy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual yondashuvni shakllantirishi lozimligini ko'rsatadi. Universal modellar mavjud bo'lishi mumkin, ammo ularni amalga oshirish mexanizmi har doim milliy kontekst bilan uyg'unlashtirilishi zarur.

Yakuniy tarzda, yoshlar muammolariga nisbatan munosabatni qayta ko'rib chiqish zarur. Yoshlar faqat ijtimoiy himoya ob'yekti sifatida emas, balki jamiyatning strategik rivojlanish resursi sifatida qaralishi lozim. Shu ma'noda, yoshlarga yo'naltirilgan siyosatlar qisqa muddatli ijtimoiy dasturlar doirasida emas, balki uzoq muddatli strategik rivojlanish konsepsiyasi sifatida shakllantirilishi kerak.

Yoshlar muammosi – bu alohida ijtimoiy qatlam muammosi emas. Bu jamiyatning o'z kelajagi bilan munosabati qanday ekanining ko'rsatkichidir. Yoshlar siyosati samaradorligini baholashda asosiy mezon ajratilgan resurslar hajmi emas, balki yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimga real integratsiya darajasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bloom, D., Canning, D., & Sevilla, J. (2003). *The demographic dividend: A new perspective on the economic consequences of population change*. RAND Corporation.
2. Beck, U. (1992). *Risk society: Towards a new modernity*. Sage Publications.
3. Eurofound. (2021). *Young people not in employment, education or training (NEET): Overview report*. Luxembourg: Publications Office of the European Union.

4. Furlong, A. (2013). *Youth studies: An introduction*. Routledge.
5. International Labour Organization. (2022). *Global employment trends for youth 2022*. Geneva: ILO.
6. International Labour Organization. (2023). *Employment and labour market review: Uzbekistan*. Geneva: ILO.
7. International Labour Organization. (2023). *Afghanistan labour market profile*. Geneva: ILO.
8. International Labour Organization. (2024). *Global employment trends for youth 2024*. Geneva: ILO.
9. OECD. (2021). *Youth policy reviews and skills strategy*. Paris: OECD Publishing.
10. UNESCO. (2023). *Education in Afghanistan: Challenges and progress*. Paris: UNESCO.
11. UNFPA. (2024). *Afghanistan population dashboard*. United Nations Population Fund.
12. UNICEF. (2023). *Youth in Uzbekistan: Challenges and opportunities*. Tashkent: UNICEF.
13. UNICEF. (2023). *Children and youth in Afghanistan*. New York: UNICEF.
14. United Nations. (2022). *World youth report 2022: Reimagining youth engagement*. New York: UN.
15. World Bank. (2019). *World development report 2019: The changing nature of work*. Washington, DC: World Bank.
16. World Bank. (2021). *World development report 2021: Data for better lives*. Washington, DC: World Bank.
17. World Bank. (2023). *World development report 2023: Jobs and economic transformation*. Washington, DC: World Bank.
18. World Bank. (2023). *Afghanistan development update*. Washington, DC: World Bank.
19. World Bank. (2024). *Uzbekistan country economic update*. Washington, DC: World Bank.
20. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi. (2024). *Aholi va demografiya bo'yicha ma'lumotlar*. Toshkent.

THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS

*Management student **GongYiFeng** of the
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
Economics teacher of the
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi*

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

